

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 8

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

ODIL YOQUBOV QISSALARI VA HENRY JAMES NOVELLALARIDA PSIXOLOGIK TAHLIL HAMDA AXLOQIY TANLOV POETIKASI

Djumayeva Gulnora Zokirovna

Buxoro davlat universiteti, mustaqil tadqiqotchi.

e-mail: gulnoradjumaeva_93@mail.ru ORCID: <https://orcid.org/0009-0001-9312-1279>

Annotatsiya.

Maqolada Odil Yoqubov qissalari va Henry James novellalari qiyosiy-tipologik yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda qisqa epik janrning kompozitsion ixchamligi, psixologik tasvir, axloqiy tanlov, ijtimoiy muhit va shaxs erki o'rtasidagi ziddiyat masalalariga e'tibor qaratiladi. Yoqubovning "Muqaddas", "Qanot juft bo'ladi", "Billur qandillar" qissalarida qahramonlarning vijdon, mas'uliyat, muhabbat va ijtimoiy burch bilan bog'liq ichki kechinmalari milliy hayot realligi bilan uyg'unlashadi. Henry Jamesning "Daisy Miller", "The Aspern Papers", "The Turn of the Screw" novellalarida esa psixologik holat cheklangan nigoh, noaniq rivoya va talqinlar ko'pligi orqali ochiladi. Qiyosiy tahlil ikki adib ijodidagi janriy yaqinlik bilan bir qatorda, ularning axloqiy mezonlari va rivoya strategiyalaridagi farqlarni ham ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Odil Yoqubov, Henry James, qissa, novella, psixologizm, axloqiy tanlov, qiyosiy adabiyotshunoslik, rivoya, xarakter, badiiy konflikt.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ И ПОЭТИКА НРАВСТВЕННОГО ВЫБОРА В ПОВЕСТЯХ ОДИЛА ЯКУБОВА И НОВЕЛЛАХ ГЕНРИ ДЖЕЙМСА

Джумаева Гульнора Зокировна

Бухарский государственный университет, независимый исследователь.

Аннотация.

В статье на основе сравнительно-типологического подхода анализируются повести Одила Якубова и новеллы Генри Джеймса. Особое внимание уделяется композиционной компактности малых эпических жанров, психологическому изображению, нравственному выбору, а также конфликту между социальной средой и свободой личности. В повестях Одила Якубова «Muqaddas», «Qanot juft bo'ladi» и «Billur qandillar» внутренние переживания героев, связанные с совестью, ответственностью, любовью и общественным долгом, раскрываются во взаимосвязи с реалиями национальной жизни. В новеллах Генри Джеймса «Daisy Miller», «The Aspern Papers» и «The Turn of the Screw» психологическое состояние раскрывается посредством ограниченной точки зрения, повествовательной неоднозначности и множественности интерпретаций. Сравнительный анализ выявляет не только жанровую близость произведений двух писателей, но и различия в их нравственных критериях и повествовательных стратегиях.

Ключевые слова: Одил Якубов, Генри Джеймс, повесть, новелла, психологизм, нравственный выбор, сравнительное литературоведение, повествование, характер, художественный конфликт.

PSYCHOLOGICAL ANALYSIS AND THE POETICS OF MORAL CHOICE IN ODIL YOQUBOV'S NOVELLAS AND HENRY JAMES'S SHORT STORIES

Djumayeva Gulnora Zokirovna

Bukhara State University, Independent Researcher.

Abstract.

The article analyzes Odil Yoqubov's novellas and Henry James's short fiction from a comparative-typological perspective. The study focuses on the compositional compactness of short epic genres, psychological representation, moral choice, and the conflict between the social environment and individual freedom. In Yoqubov's *Muqaddas*, *Qanot juft bo'ladi*, and *Billur qandillar*, the characters' inner experiences related to conscience, responsibility, love, and social duty are closely intertwined with the realities of national life. In Henry James's *Daisy Miller*, *The Aspern Papers*, and *The Turn of the Screw*, psychological states are revealed through limited perspective, narrative ambiguity, and multiple interpretations. The comparative analysis demonstrates not only the generic affinities between the works of the two writers but also differences in their moral criteria and narrative strategies.

Keywords: Odil Yoqubov, Henry James, novella, short fiction, psychologism, moral choice, comparative literature, narrative, character, literary conflict.

Kirish. Qiyosiy adabiyotshunoslikning muhim vazifalaridan biri turli milliy adabiyotlarda shakllangan badiiy hodisalarning umumiy va o'ziga xos jihatlarini aniqlash, ularning poetik tabiati va estetik tamoyillarini qiyosiy tahlil qilishdan iborat. Bunday yondashuv turli adabiy an'analar vakillari ijodida mushtarak bo'lgan umuminsoniy muammolar bilan bir qatorda, ularning milliy-madaniy va badiiy tafakkur xususiyatlarini ham aniqlash imkonini beradi. Shu nuqtayi nazardan, Odil Yoqubov qissalari va Henry James novellalari qisqa epik shaklda inson ruhiyatini, axloqiy tanlovni hamda shaxs va ijtimoiy muhit o'rtasidagi ziddiyatni tasvirlash imkoniyatlari bilan qiyosiy tadqiq uchun muhim material hisoblanadi. Har ikki adib ijodida insonning ichki dunyosi, uning qarori va kechinmalari, tashqi muhit ta'sirida yuzaga keladigan ruhiy ziddiyatlar badiiy tasvirning muhim tarkibiy qismini tashkil etadi. XX asr realistik nasrida inson va jamiyat munosabatlari, shaxsning ma'naviy dunyosi hamda ijtimoiy muhit masalalari muhim badiiy muammolardan biri sifatida talqin qilingan [1].

Har ikki adib syujetni tashqi voqealar ko'pligiga emas, qahramon ruhiyatidagi o'zgarish va ichki konfliktga asoslaydi. Bunda tashqi voqelik qahramonning ichki holatini ochib beruvchi vosita vazifasini bajaradi. Qahramonning xatti-harakati, qarori yoki muayyan vaziyatga munosabati uning ruhiy dunyosidagi murakkab jarayonlar bilan uzviy bog'lanadi. Biroq badiiy tafakkur yo'nalishida sezilarli farq mavjud. Yoqubov nasrida vijdon, mas'uliyat, insoniylik va ma'naviy poklik masalalari aniq ijtimoiy muhit bilan bog'liq holda talqin qilinsa, James asarlarida ma'no ko'pincha kuzatuv, shubha, sukut va turlicha talqinlar orqali shakllanadi. Shu jihatdan Yoqubov qahramonlarining ruhiy kechinmalari ko'proq ijtimoiy-axloqiy mezonlar bilan munosabatda ochilsa, Jamesda inson ongining murakkabligi va voqelikni subyektiv idrok etish masalasi ustuvor ahamiyat kasb etadi. Bu jihat Jamesning badiiy ijod haqidagi qarashlarida ham rivoya va muallif pozitsiyasi masalalariga berilgan e'tibor bilan uyg'unlashadi [2].

Mazkur qiyosda psixologizm tushunchasi alohida ahamiyatga ega. Chunki qisqa epik janrlarda hajmning nisbatan ixchamligi qahramon xarakterini keng biografik tasvirlar orqali emas, balki muhim ruhiy holatlar, konfliktli vaziyatlar, badiiy detallar va rivoya strategiyalari vositasida ochishni taqozo etadi. Shu sababli qissa va novella janrlarida ichki konfliktning syujet bilan munosabati, qahramonning axloqiy qarorlar oldidagi holati hamda muallif va narrator pozitsiyasi masalalari alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Odil Yoqubov va Henry James ijodini qiyoslash aynan shu jihatlarini turli milliy adabiy tajribalar doirasida ko'rib chiqish imkonini beradi.

Mavzuning dolzarbligi qissa va novella janrlarining psixologik imkoniyatlarini, shuningdek, milliy va jahon nasrida shaxs muammosining turli estetik shakllarda ifodalanişini qiyosiy o'rganish zarurati bilan belgilanadi. Ayniqsa, insonning ichki dunyosi va axloqiy tanlovini badiiy ifodalashda turli adabiy an'analar qanday poetik vositalardan foydalanishini aniqlash qiyosiy adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan muhimdir. Zamonaviy adabiyotshunoslikda shaxs va jamiyat munosabatlarini antropotsentrik nuqtayi nazardan o'rganish ham badiiy matn tahlilining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Shu ma'noda, Odil Yoqubov va Henry James asarlarining qiyosiy-tipologik tahlili, bir tomondan, o'zbek nasrining psixologik va axloqiy-estetik xususiyatlarini yanada aniqroq belgilashga, ikkinchi tomondan esa ushbu xususiyatlarni jahon adabiy jarayonidagi umumiy poetik tendensiyalar bilan qiyoslashga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda qiyosiy-tipologik, struktural-poetik va germeneytik tahlil usullaridan foydalanildi. Qiyosiy-tipologik yondashuv ikki adib asarlaridagi umumiy janriy va badiiy xususiyatlarni aniqlashga xizmat qiladi. Struktural-poetik tahlil syujet, kompozitsiya, rivoya nuqtayi nazari, badiiy detal va konfliktning funksiyasini ochib beradi. Germaneytik yondashuv esa qahramonlarning ichki kechinmalari, ikkilanishlari, sukuti va ma'naviy tanlovining mazmuniy qatlamlarini talqin qilish imkonini beradi. Rivoya nuqtayi nazari va narrator masalasini o'rganishda badiiy hikoya qilishning strukturaviy xususiyatlariga alohida e'tibor qaratildi.

Tahlil uchun Odil Yoqubovning "Muqaddas", "Qanot juft bo'ladi", "Billur qandillar" qissalari hamda Henry Jamesning "Daisy Miller", "The Aspern Papers", "The Turn of the Screw" novellalari tanlandi. Ushbu asarlar qisqa epik shaklda psixologik konflikt va axloqiy tanlovning turli ko'rinishlarini kuzatish imkonini beradi.

Natijalar va muhokama

Qissa va novella roman singari keng ijtimoiy manzarani qamrab olmasa-da, inson hayotidagi muhim burilishlarni psixologik jihatdan chuqur tasvirlash imkonini beradi. Mazkur janrlarning ixchamligi yozuvchidan voqealar tafsilotini ko'paytirishdan ko'ra, qahramon xarakterini belgilovchi muhim vaziyat va ruhiy holatlarni tanlashni talab etadi. Shu sababli qissa va novellada badiiy konflikt ko'pincha tashqi voqeadan ko'ra qahramonning ichki kechinmalari, qarorlari va ikkilanishlari orqali rivojlanadi. Odil Yoqubovning "Muqaddas" qissasida muhabbat, halollik va shaxsiy manfaatni jilovlash masalalari qahramonning axloqiy tanlovini belgilovchi omillar sifatida namoyon bo'ladi [3; 36–42-b.]. Asardagi ruhiy ziddiyat qahramonning shaxsiy istaklari bilan insoniy mas'uliyat o'rtasidagi munosabatni ochib, psixologik tasvirni qahramonning axloqiy qiyofasini shakllantiruvchi poetik omilga aylantiradi.

"Qanot juft bo'ladi" qissasida insonning ruhiy ulg'ayishi, hayotiy tajribasi va ma'naviy tayanch izlash jarayoni qahramon xarakterini ochishning muhim vositasiga aylanadi [4; 16-b.]. Qahramonning hayotiy tajribasi ortgani sari uning atrofidagi voqelikka munosabati ham o'zgarib boradi. Bu jarayon psixologik tasvirning dinamik xususiyatini ko'rsatadi: xarakter hayotiy vaziyatlar va ichki kechinmalar ta'sirida shakllanadi. "Billur qandillar"da esa xotira, tashqi go'zallik va ichki iztirob o'rtasidagi munosabat qahramon ruhiyatini ochuvchi badiiy vosita sifatida namoyon bo'ladi [5]. Bunda tashqi predmet yoki estetik detal qahramonning ichki dunyosini ifodalovchi ramziy-psixologik vazifani bajaradi. Shu jihatdan Yoqubov qissalarida badiiy detal va ruhiy kechinma o'rtasidagi aloqadorlik psixologik tasvirning muhim belgilaridan biridir.

Henry James novellalarida ham syujet ixcham bo'lsa-da, psixologik konflikt boshqa poetik vositalar orqali

shakllanadi. "Daisy Miller"da yosh amerikalik qizning Yevropa muhitidagi xatti-harakatlari ijtimoiy me'yor va shaxsiy erkinlik o'rtasidagi ziddiyatni yuzaga keltiradi [6; 7–11-b.]. Daisy obrazining turlicha baholanishi o'quvchini qahramonning xatti-harakatlari yuzasidan yakuniy hukm chiqarishda ikkilanishga majbur qiladi. Bu yerda qahramonning ruhiy dunyosi uning individual xatti-harakatlari bilan birga, atrofidagi kishilarning unga munosabati orqali ham ochiladi. Natijada ijtimoiy muhit psixologik tahlilning faol tarkibiy qismiga aylanadi.

"The Aspern Papers"da adabiy merosni qo'lga kiritish istagi shaxsiy manfaat va axloqiy chegaralar o'rtasidagi konfliktni yuzaga keltiradi. Asardagi narratorning xususiy hayotga aralashuvi ilmiy qiziqish va shaxsiy manfaat o'rtasidagi chegaraning buzilishini ko'rsatadi [7]. Narrator o'z harakatlarini muayyan darajada oqlash imkoniyatiga ega bo'lsa-da, uning faoliyati boshqa shaxslarning daxlsizligi va huquqlari bilan to'qnashadi. Shu tariqa James axloqiy muammoni oddiy "yaxshi" va "yomon" qarama-qarshiligi emas, balki turli manfaat va qarashlar to'qnashadigan murakkab vaziyat sifatida shakllantiradi.

"The Turn of the Screw"da esa voqealarning obyektivligi shubha ostida qoladi. Asarda yuz berayotgan hodisalar real voqelikmi yoki narratorning subyektiv idroki mahsulimi, degan savol asarning asosiy poetik muammosiga aylanadi. Bunday noaniqlik o'quvchini voqeani yagona ma'noda emas, turli talqinlar asosida qabul qilishga undaydi [8; 52-b.]. Bu usul psixologik tahlil imkoniyatlarini kengaytiradi, chunki o'quvchi qahramonning ruhiy holatini tayyor muallif izohi orqali emas, balki uning idroki, kuzatuv va bayon qilish usuli orqali anglashga harakat qiladi. Natijada subyektiv idrokning o'zi badiiy konfliktning muhim manbasiga aylanadi.

Ikki adib ijodini yaqinlashtiruvchi muhim jihat — psixologizmning yetakchi mavqeyidir. Yoqubov qahramonlarining ichki monologi, hissiy tebranishlari va vijdon oldidagi mas'uliyati aniq ijtimoiy-axloqiy mezonlar bilan bog'lanadi. Qahramonning ichki kechinmalari uning jamiyat, oila, yaqin insonlar va axloqiy qadriyatlarga munosabati orqali mazmun kasb etadi. Shu sababli Yoqubovdagi psixologizm individual ruhiyatni tasvirlash bilan cheklanmay, insonning ijtimoiy va ma'naviy mavjudligini ham yoritadi.

Jamesda esa psixologik tahlil qahramon ongining murakkabligi, kuzatuvchining cheklangan nigohi va noaniq xulosalar orqali amalga oshiriladi. Bunday yondashuv badiiy rivoyada voqelik va uning idroki o'rtasidagi farqni kuchaytiradi. Natijada o'quvchi nafaqat voqeani, balki uning qanday idrok qilinayotganini ham tahlil qilishga majbur bo'ladi. Shu jihatdan James poetikasida psixologizm ichki monolog bilan bir qatorda narrativ perspektiva va axborotning cheklanganligi orqali ham yuzaga keladi.

Axloqiy tanlov har ikki adib ijodidagi yana bir muhim umumiylikdir. Yoqubov qissalarida tanlov ijtimoiy burch, muhabbat, oilaviy mas'uliyat, halollik va inson sha'ni bilan bog'lanadi. "Muqaddas"dagi hissiy ziddiyat shaxsiy muhabbat doirasidan chiqib, insonning o'z manfaatini cheklashi va boshqaning sha'nini hisobga olishi masalasiga aylanadi [3; 6-b.]. Shu ma'noda, qahramonning ichki konflikti uning axloqiy pozitsiyasini namoyon etadi. Shaxsiy istak va ma'naviy burch o'rtasidagi tanlov qahramon xarakterining asosiy mezoniga aylanadi.

Jamesda esa axloqiy konflikt ko'pincha bevosita hukm shaklida emas, balki muammoli vaziyat orqali namoyon bo'ladi. "The Aspern Papers"dagi narratorning xatti-harakatlari o'quvchini ilmiy qiziqish va shaxsiy manfaatning axloqiy chegaralari haqida mulohaza yuritishga undaydi [7]. Shu tariqa James asarlarida axloqiy baho ko'pincha muallif tomonidan tayyor holda berilmaydi. O'quvchi turli pozitsiyalarni solishtirish va qahramonlarning yashirin motivlarini anglash orqali o'z xulosasini shakllantiradi. Bu esa James nasrida axloqiy muammoning ko'p qatlamli va talqinga ochiq xarakterini ta'minlaydi.

Ayol obrazining badiiy vazifasida ham ikki adibning poetik farqlari ko'zga tashlanadi. Yoqubov qissalarida ayol obrazi mehr, sadoqat, ma'naviy go'zallik va hayotiy sabr bilan bog'liq holda qahramonning axloqiy dunyosini ochishga xizmat qiladi. Ayol obrazi orqali nafaqat shaxsiy munosabatlar, balki qahramonning insoniy qadriyatlarga munosabati ham namoyon bo'ladi. Shu sababli mazkur obrazlar qissalardagi psixologik va axloqiy konflikt rivojida muhim funksional ahamiyat kasb etadi.

Jamesda esa ayol obrazi ko'proq ijtimoiy baholash va talqin muammosi bilan bog'lanadi. Xususan, Daisy Miller obrazi atrofidagi qarashlar qahramonning o'zidan ko'ra uni kuzatuvchi jamiyatning mezonlarini ham ochib beradi [6]. Shu sababli obrazning mazmuni faqat uning xatti-harakatlarida emas, balki boshqa qahramonlarning uni qanday baholashida ham namoyon bo'ladi. Bunda ayol obrazi jamiyatning axloqiy va ijtimoiy mezonlarini ko'rsatuvchi o'ziga xos "ko'zgu" vazifasini bajaradi.

Rivoya usulidagi farq ham qiyosiy tahlil uchun muhimdir. Yoqubov qissalarida muallifona kuzatuv va qahramon ruhiyatiga yaqin tasvir ustunlik qiladi. Psixologik holat suhbat, tabiat tasviri, predmet detali yoki ichki kechinma orqali ochiladi. Bunday usul o'quvchiga qahramonning ruhiy holatini bevosita yoki bilvosita kuzatish imkonini beradi.

Jamesda esa narrator ko'pincha voqealarni to'liq bilmaydi va ularni o'z nuqtayi nafari asosida talqin qiladi. Natijada voqea va uning rivoyasi o'rtasida masofa paydo bo'ladi. Bunday rivoya strategiyasi o'quvchining matnni mustaqil talqin qilish imkoniyatini kengaytiradi. Henry James poetikasini o'rganishda aynan rivoya qiluvchining pozitsiyasi va voqelikni idrok etish chegaralari muhim nazariy masalalardan biri hisoblanadi. Narratorning cheklangan bilim doirasi o'quvchini voqelik bilan uning talqini o'rtasidagi farqni anglashga undaydi.

James ijodidagi noaniqlik masalasi, ayniqsa, "The Turn of the Screw"da yaqqol ko'zga tashlanadi. Voqealarning real yoki g'ayritabiiy ekanini aniqlash imkonining cheklanganligi asarni turli talqinlarga ochiq qiladi. Bunday poetik usul fantastik va noaniq tasvirning strukturaviy xususiyatlari bilan bog'liq [8; 86–88-b.]. Noaniqlik bu yerda shunchaki syujetga xos xususiyat emas, balki qahramon ruhiyatini anglashning ham muhim vositasiga aylanadi. O'quvchi narratorning idroki qanchalik ishonchli ekanini qayta ko'rib chiqishga majbur bo'ladi.

Final poetikasida ham ikki adib o'rtasidagi tafovut seziladi. Yoqubov qissalarida yakun qahramonning ma'naviy holati va axloqiy tanlovidan kelib chiqadigan xulosani sezdiradi. Bunday yakun qahramonning ruhiy yo'lini

umumlashtirib, uning qarorining ma'naviy mohiyatini anglashga yordam beradi. Jamesda esa final ko'pincha ochiq qoladi. "The Turn of the Screw" yakuni o'quvchini voqealarning mohiyati yuzasidan mustaqil xulosa chiqarishga undaydi. Shu jihatdan ikki adibning final poetikasi ham ularning badiiy tafakkuridagi farqni ko'rsatadi: Yoqubovda ma'naviy xulosa nisbatan aniqroq sezilsa, Jamesda yakuniy ma'no o'quvchining talqiniga ko'proq qoldiriladi.

Shunday qilib, ikki adibni yaqinlashtiruvchi asosiy jihatlar — inson ruhiyatiga e'tibor, ichki konfliktning syujet harakatining muhim omiliga aylantirish va qisqa epik shakl imkoniyatlaridan foydalanishdir. Ularni farqlovchi jihat esa, avvalo, axloqiy mezonning ifodalanish darajasi va rivoyaning noaniqligida namoyon bo'ladi. Yoqubov nasrida insoniy qadriyatlar aniqroq axloqiy kontekstda talqin qilinsa, Jamesda ular murakkab idrok va turli talqinlar orqali yuzaga chiqadi. Shu bilan birga, har ikki adibda psixologizm qahramonning ichki dunyosi, ijtimoiy muhit bilan munosabati va axloqiy tanlovini ochib beruvchi asosiy vositaga aylanadi. Demak, qissa va novella janrlarining ixcham shakli har ikki ijodkorga insonning murakkab ruhiy va ma'naviy olamini turlicha estetik strategiyalar asosida ifodalash imkonini bergan.

Xulosa

Odil Yoqubov qissalari va Henry James novellalarining qiyosiy tahlili qisqa epik janrning turli milliy-adabiy muhitlarda inson ruhiyati va axloqiy konfliktning ifodalashdagi imkoniyatlarini ko'rsatadi. Har ikki adibda tashqi voqeadan ko'ra qahramonning ichki holati, ruhiy kechinmalari va axloqiy tanlovi muhim badiiy harakatlantiruvchi kuchga aylanadi.

Yoqubov qissalarida psixologizm real ijtimoiy muhit, milliy axloqiy qadriyatlar, vijdon va mas'uliyat bilan uzviy bog'langan bo'lsa, James novellalarida psixologik tasvir cheklangan narrator, noaniq rivoya, kuzatuv va turli talqinlar orqali shakllanadi. Shu jihatdan ikki adibda umumiy psixologik yo'nalish mavjud bo'lsa-da, uning badiiy ifodasi va axloqiy mazmunni ochish usullari bir-biridan farq qiladi.

Tadqiqot natijasida ikki adib ijodidagi o'xshashliklar bevosita ta'sirdan ko'ra umumadabiy qonuniyatlar — inson ruhiyatiga chuqur kirish, ichki konfliktning badiiy markazga qo'yish va ixcham syujet orqali muhim ma'naviy muammolarni ifodalash bilan izohlanishi aniqlandi. Mazkur qiyosiy tahlil Odil Yoqubov nasrining jahon nasri kontekstidagi poetik xususiyatlarini yanada aniqroq belgilash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ganieva O. Kh. Depiction of Relations Between a Person and Society in American Realistic Literature // Scientific Bulletin of Namangan State University. – 2020. – Vol. 2, No. 8. – P. 215–220.
2. James H. The Art of Fiction // Longman's Magazine. – 1884. – P. 86.
https://public.archive.wsu.edu/campbelld/public_html/amlit/artfiction.html
3. Yoqubov O. Muqaddas. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2009. – 128 b.
4. Yoqubov O. Qanot juft bo'ladi. – Toshkent: Nurli dunyo, 2024. – 223 b.
5. Yoqubov O. Billur qandillar: qissa. – Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1975.
6. James H. Daisy Miller: A Study. – London: Macmillan and Co., 1879. – 284 p.
7. James H. The Aspern Papers. – London; New York: Macmillan and Co., 1888.
<https://www.gutenberg.org/files/211/211-h/211-h.htm>
8. Джеймс Г. Поворот винта. – М.: Азбука, 2015. – 352 с.